

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINING DUAL TA'LIM SHAKLINI TASHKIL ETISHDA MODULLI O'QITISHNING SAMARADORLIGI

O'rmonova Nafisaxon Tojidinovna

Buloqbohi pedagogika kolleji maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada dual ta'lim tizimi to'g'risida shuningdek dual ta'limni modulli o'qitishning samaradorligi to'g'risida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim tizimi, ta'lim muassasalari, dualizm, professional ta'lim, dual ta'lim, vazifa, ahamiyat.*

Respublika iqtisodiyotining barqaror va jadal taraqqiyotini ta'minlashda kelajak uchun keng qamrovli, oqilona asoslangan ustuvor vazifalar va yo'nalishlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning reja va dasturlari ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimizda shakllantirilayotgan, ko'pgina jabhalarda chuqurlashib borayotgan yangicha bozor munosabatlari uzluksiz ta'lim tizimiga, shu jumladan, iqtidorli, tashabbuskor yuqori malakali kadrlar soni va salohiyatini oshirishga xizmat qilayotgan Professional ta'lim muassasalari faoliyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash davrida fuqarolar daromadlari, turmush darajasi va respublikada ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, natijada yurtimiz mustaqilligini mustahkamlash, xalqimiz farovonligini yuksaltirish maqsadida aholi bandligini ta'minlash uchun yangi ish o'rinlari yaratish, mehnat sharoitlarini yaxshilash bilan birgalikda mehnat resurslari intellektual salohiyatini oshirish vazifalari ham bugunning dolzarb ahamiyat kasb etuvchi masalalari qatoridan o'rin egallaydi.

Dualizm haqida to'xtaladigan bo'lsak, dualizm (lot. dualis — ikki yoqlama) — bir-biri bilan birlashtirib bo'lmaydigan holatlar, tamoyillar, fikrlash tarzi, dunyoqarash, intilish va gnoseologik tamoyillar yonma-yon mavjudligini targ'ib qiluvchi ta'limot. Dualizm plyuralizm ko'rinishlaridan biri. Dualizm terminini nemis faylasufi X.Volf (1679— 1754) kiritgan. Dualizm quyidagi juft tushunchalarni ifodalaydi: g'oyalar dunyosi va voqeyiy dunyo. Dualizm falsafiy, diniy, antropologik, etik shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Qadimgi davrda diniy-etik dualizm Avestoda uchraydi. Dualizm falsafada ikki mustaqil narsa — ruh va materiya mavjud deb bilishida ko'rinadi. Bu ayniqsa R.Dekart va I.Kant qarashlarida ko'zga yaqqol tashlanib turadi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, shuningdek yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallashga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratish maqsadida

2021/2022 o'quv yilidan professional ta'lim tizimida dual ta'lim tashkil etiladi. Ta'lim to'g'risidagi Qonunning 17-moddasida dual ta'lim to'g'risida fikr yuritilib, —Dual ta'lim ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi. Dual ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadill deb ta'kidlangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi —Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish choratadbirlari haqidallgi 163-son Qarorining qabul qilinishi Respublikamizda dual ta'limni tashkil qilish bo'yicha amaliy ishlar boshlanganligidan dalolat beradi.

Dual ta'lim – bu ta'limni o'z yo'nalishiga mos tashkilotda mehnat qilish bilan birga olib boruvchi tizimdir. Dual ta'limni tashkil etish uchun hokimliklar va manfaatdor vazirliklar tomonidan o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyoj aniqlanadi va taklif tayyorlanadi. Xalqaro mehnat bozori talablari, integratsion jarayonlarning jadallashuvi, raqamlashtirish, sanoatdagi texnologik inqiloblar davrida zamon talablariga mos malaka va ko'nikmalarga ega raqobatbardosh o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlashni, kasb-hunar ta'lim sohasida yangi tizimni — xalqaro andozalarga mos professional ta'lim tizimini talab qilmoqda.

Dual ta'limni tashkil etishning vazifalari quyidagilardan iborat:

- korxonalar (tashkilot)dagi ishlab chiqarish sharoitlari bilan Ta'lim muassasalari o'quv jarayonlarini o'zaro bog'lash;
- o'quvchilarni mehnat faoliyati ishtirokchisiga aylantirish orqali ta'limning ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qismini korxonalar (tashkilot)larda hamda nazariy va o'quv-amaliy qismini Ta'lim muassasalarida tashkil etish;
- hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish hamda iqtisodiyotning real ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlashni takomillashtirish;
- korxonalar (tashkilot)lar hamda Ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorlik formatlari va modellarini ishlab chiqish;
- ta'lim dasturlarini mehnat faoliyati bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirgan holda kompetensiyalarni shakllantirish;
- ta'lim dasturlarini ish beruvchilarning talablari va ulardagi texnologik yangilanishlar asosida takomillashtirib borish;
- kadrlarni tayyorlash va ta'lim dasturlarini amalga oshirishni moliyalashtirish;
- korxonalar (tashkilot)lar va Ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro tarmoq hamkorligining shakl va uslublarini takomillashtirish;

- bitiruvchilarni baholashda korxonalar (tashkilot)lar ishtirokini yanada kengaytirish;
- turli yoshdagi aholi qatlamini tegishli kasb (mutaxassisliklar) bo'yicha kvalifikatsiyalarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish.

O'qitishning dual tizimi hozirgi davr tadqiqotchilari tomonidan nazariy qism bevosita ta'lim muassasalari tomonidan, amaliy qism esa tashkilot (korxonalar) maydonlarida – bo'lajak mehnat faoliyat joylarida amalga oshiriladigan o'qitish sifatida tushuniladi. Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarni tayyorlashga ijtimoiy buyurtmani rasmiylashtiradi, tashkiloti esa o'quv dasturlarini ishlab chiqishda, ta'lim faoliyatini tashkil etish mazmuni va shakllarini tuzatib chiqishda, metodik majmuani ta'minlashda ishtirok etish uchun ustozlarni belgilaydi.

Dual ta'lim ma'lum bir korxonalar ehtiyojlariga muvofiq ma'lum bir darajadagi mutaxassislarni tayyorlashda o'quv va ishlab chiqarish sohalarining kelishilgan o'zaro ta'sirini o'z ichiga olgan kasbiy tayyorgarlikni tashkil etishning innovatsion shakli tushuniladi. Bunda o'quv muassasasi va ishlab chiqarish korxonalarini maqsadlarining umumiyligi ijtimoiy tarkibiy xususiyatlarga ega bo'lgan muayyan malakalarning vakolatli mutaxassislarni tayyorlash jarayoni integratsiyasi hisoblanadi. Ushbu integratsiya asoslari ikki tomonlama tayyorgarlik sharoitida amalga oshirilayotgan maqsadlar, qadriyatlar mazmuni, tadbirlar hamjamiyatini aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qo'ysinov O.A. "Kasbiy pedagogika" fanidan elektron darslik. O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi guvohnomasi №DGU 03392. Toshkent-2015 yil.

2. Qo'ysinov O.A. "Barkamol shaxsni shakllantirish, sog'lom turmush madaniyatiga ega yoshlarni tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish" "Mustaqil O'zbekiston innovatsion taraqqiyot yo'lida" Respublika konferensiya materiallari. – Toshkent-2017 yil.

3. Niyozev G , Axmedova.M Pedagogika tarixidan seminar. –Noshirll, Toshkent, 2011, 142 bet

4. Ibraymov A. Masofaviy o'qitish tizimini tashkil etish va o'quv kurslari mazmunini ishlab chiqishning o'ziga xos xususiyatlari. O'zMU xabarlarini. – Toshkent, 2016 yil.

5. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi. – T.: – Fan va texnologiyall , 2015, 160